The scientific innovation expected in our research will be improved on the basis of self-development, linguo-didactic foundations of students' vocabulary growth, giving priority to communicative, pragmatic, sociolinguistic, linguocultural approaches;

methodical conditions for increasing students' vocabulary on the basis of self-development are developed on the basis of expanding the possibilities of using cognitive, creative technologies, induction, deduction, analysis-reading, reading technologies;

on the basis of self-development, the content of students' vocabulary growth is improved, assuming the use of concentrism, modular exercises, heuristic, pragmatic, active, technological exercises, ensuring convenience and coherence;

In the process of self-development, criteria-indicators for determining the level of vocabulary growth of students are developed with the aim of ensuring the productivity and representativeness of the test results.

Literature:

1. Safarova R.G. Developing professional competence of Future Professionsls on the Basis of Cultural Approach. Valume 27 (2022) of Miasto Przyszłości. P 58-63. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/493>
2. Maiden, N. A. M., and Gordon Rugg. «ACRE: selecting methods for requirements acquisition.» Software Engineering Journal 11.3 (1996): 183—192.
3. Рагг Гордон, and Peter McGeorge. «The sorting techniques: a tutorial paper on card sorts, picture sorts and item sorts.» Expert Systems 14.2 (1997): 80-93.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tayanch doktorant - Sh.B.Sagidullaeva

Annotatsiya. Ushbu maqolada óquvchilarning sóz boyligini oshirishning nazariy asoslari, o'qituvchilarda kundalik kasbiy faoliyatida shakllanadigan muhim kompetensiyalar, bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish, o'quv topshiriqlardan foydalanish masalasiga qaratilgan ishlarga respublikamiz olimlari va xorijiy olimlarning qo'shgan hissalari bo'yicha malumotlar keltirilgan.

Kalit sózlar: Óquvchi, kompetensiya, motivatsiya, ta'lim, rivojlantirish, topshiriq, imkoniyat.

Óquvchilarning sóz boyligini oshirish hayotiy xarakter kasb etib insonning kundalik faoliyati uchun zarur bo'lgan faoliyatni egallashga xizmat qiladigan topshiriqlar majmuidir. Mazkur topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarda kundalik kasbiy faoliyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyalar shakllanadi. Bunday topshiriqlar yordamida ta'lim oluvchilarda o'z - o'zini rivojlantirish motivatsiyasi hosil bo'ladi, chunki pragmatik topshiriqlar ta'lim oluvchilar faoliyatini bir necha bosqichda tadrijiy tarzda rivojlantirish imkoniyatiga ega. Mazkur topshiriqlar yordamida oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoni maxsulorligini ta'minlash masalasi aksariyat rivojlangan mamalakatlarning ta'lim tizimi uchun xarakterli hisoblanadi. Chunki óquvchilarning sóz boyligini oshirish xarakterdagи topshiriqlar talabalarni zarur axborotlar bilan qurollantirish ularning o'zlashtirish darajasini nazorat va tahlil qilish vositasi hisoblanadi.

Dunyoninig rivojlangan mamalakatlari Koreya, AQSh, Singapur kabi mamalakatlarda óquvchilarning sóz boyligini oshirish xarakterdagи o'quv topshiriqlarni bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish imkoniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada keng ko'lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Oliy pedagogik ta'lim mazmunini isloh qilish, o'quv tarbiya jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish zaruriyati ta'lim mazmuniga pragmatik xarakterdagи o'quv topshiriqlarini tadrijiy asosida singdirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Ta'lim jarayonida o'quv topshiriqlardan foydalanish masalasiga bir qator mutaxassislar murojat qilganlar: O.Rozziqov, R.Safarova, B.Adizov, M.Maxmudov, M.Inoyatova, F.Qo'chqorovalar.

MDH mamalakatlaridan Vigotskiy, Liontov, Z.A.Gritsenko, S.A.Denisova, O.V.Djejeley, N.V.Zbarovskaya, S.V.Ianova, T.N.Kaptan, M.G.Kachurin,

A.P.Kashkarov, L.R.Kerimova, R.A.Kiryanova, Ye.I.Kuzmenkova, S.P.Lavlinskiy, V.A.Lazareva, N.I.Lifinseva, M.Mokina, T.A.Neborskaya, Ye.V.Nikonovich, G.M.Pervova, T.S.Picherol, T.D.Polozova, A.V.Shmidt larning ishlarida yoritilgan.

S

h

u Shu bilan birga, óquvchilarning sóz boyligini oshirish bo'lajak o'qituvchilarda o'z - o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari va pedagogik shart - sharoitlarini aniqlash hamda talabalarda o'z - o'zini rivojlantirish komotensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy metodik vazifalar ishlab chiqish.

1 Óquvchilarning sóz boyligini oshirish bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompitensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari va ushbu sohadagi yondashuvlarni aniqlash.

Óquvchilarning sóz boyligini oshirish bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompitensiyasini shakllantirishning pedagogik psixologik xususiyatlarining ilmiy talqinini aniqlash.

r Óquvchilarning sóz boyligini oshirish bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompitensiyasini shakllantirishning mazmuni va uni tanlash prinsiplarini ishlab chiqish.

a Óquvchilarning sóz boyligini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirishga hizmat qiladigan pragmatik topshiriqlarning turlari va ularni qo'llash metodlarini tanlash.

r Bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompitensiyasini shakllantirishning o'z-o'zini rivojlantirishga hizmat qiladigan pragmatik topshiriqlarini guruhash va ularning didaktik imkoniyatlarini aniqlash.

Bo'lajak o'qituvchilarda pragmatik topshiriqlar yordamida o'z-o'zini H.A. Averba, D.J. Ray, C. Anderson, W. J. Williams, A. Anderson, M. Balogic, K. Bell, N. Branscombe, D.H. Krotilay Olgan vahbiyatlardan ishlari shular jumlasidandir.

Óquvchilarning sóz boyligini oshirish bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompitensiyasining nazariy asoslari, pedagogik shart - sharoitlarini faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida aniqlanadi.

Óquvchilarning sóz boyligini oshirish turlari aniqlanib gruhlangan holda ularning maxsulorligini ta'minlash mexanizmlari takomillashtiriladi.

Óquvchilarning sóz boyligini oshirish tanlash va tizimlashtirish prinsiplari aniqlanib, topshiriqlarning maxsulorligini aniqlabvchi mezonlar va indikator ko'rsatkichlar belgilab beriladi.

Óquvchilarning sóz boyligini oshirish didaktik imkoniyatlari aniqlanib ulardan rivojlantiruvchi o'quv jarayonida foydalanish metodlari va texnologiyalari takomillashtiriladi.

Óquvchilarning sóz boyligini oshirish yordamida bo'lajak o'qituvchilarda o'z – o'zini rivojlantirish kompitensiyasini shakllantirish jarayoning pedagogik modeli va uning samaradorligi shaxsning kreativligiga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Рагг Гордон, and Peter Mc George. «The sorting techniques: a tutorial paper on card sorts, picture sorts and item sorts.» Expert Systems 14. 2 (1997): 80-93.
2. Safarova R.G. Developing professional competence of Future Professionsls on the Basis of Cultural Approach. Valume 27 (2022) of Miasto Przyszłości. P 58-63.
<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/493>
3. Педагогика: энциклопедия. III жилд / тузувчилар: Жамоа. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.

**UMARALI NORMATOV IJODIY FAOLIYATI, MUNAQQIDLIKKA KIRIB
KELISHI VA MAQOLALARIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR TAHLILI**

*Sarvinoz Qo'chqarova (muallif)
Termiz davlat universiteti talabasi
Ilmiy raxbar: Sultonqulova Feruza
Ilmiy darajasi: o'qituvchi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada tanqidchi, adabiyotshunos, munaqqid olim Umarali Normatovning ijodiy faoliyatiga oid fikr mulohazalar va ilmiy ishlar tahlili, maqolalaridagi dolzarb masalalar haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Munaqqid, ijodiy faoliyat, tarjimayi hol, asarlar, tahlil, tamoyil, nazariya.

Iqtibos: "Adabiyot daryosi qurib-qaqshab yotgandan ko'ra, loyqa bo'lsa ham to 'lib oqqani ma'qul, bo'tana oqim ham oxir-oqibat tinadi-da axir"

U.Normatov

Kirish

Umarali Normatov - adabiyotshunos, tanqidchi, pedagog. 1931- yil 3- yanvar kuni Farg'ona viloyatining Rafqon qishlog'ida tug'ilgan. Umarali Normatovning butun balog'at yillari O'zbekiston Milliy universiteti bilan bog'liq (sobiq O'ODU, ToshDU): filologiya fakultetida o'qigan (1952-1957), katta o'qituvchi, dotsent, professor, o'zbek filologiyasi fakultetida kafedra mudiri kabi lavozimlarda ishlagan. 1974-yildan 2000-yilgacha O'zbekiston Milliy universitetida o'zbek filologiyasi kafedrasи mudiri bo'lgan. Bu yillar davomida kafedrada O. Sharofiddinov, A. Aliyev, A. Rasulov, N. Xudoyberganov, S. Sodikov, B. Karimov, A. Ulug'ov, R. Qo'chqorov, D. Qur'onov, U. Hamdam kabi o'zbek adabiyotidagi taniqli shaxslar bilan ishlagan. Ular tufayli va ularning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi bois, u nafaqat vatanimizda, balki xorijda ham shuhrat qozondi. Umarali Normatov 1957-yil ommaviy axborot vositalarida chop etila boshladi va bu vaqt ichida u 5000 dan ziyod maqola, 50 ga yaqin adabiy asar, 20 ta kitob, metodik qo'llanmalar va boshqalarni nashrdan chiqargan. U. Normatov faoliyatining mohiyati - tanqidchi-olim vijdanan, samarali tahlil qilgan, sharhlagan, natijada o'zbek adabiyoti yangi tarixining adabiy jarayoniga ta'sir ko'rsatgan. U. Normatovning asosiy kitoblari "Nasrimiz ufqlari" (1974), "Yetuklik" (1982), "Qalb inqilobi" (1986), "Qodiriy bog'i" (1996), O'zbekiston davlat mukofoti laureati (1989). Sovet hukumati hukmronligi davrida u o'z zamondoshlari ijodini o'rganishni boshlagan, ulardan ko'plari hayotdan ko'z yumgan. Uning tadqiqiy ishlarining natijasi "Umidbaxsh tamoyillar", "Tafakkur yog'dusi", "Qahhorni anglash

mashaqqati”, “Ko‘ngillarga ko‘chgan she’riyat”, “Ustoz ibrati”, “Ijod sehri” asarlari asosiga tushgan. Uning asarlari rus, tojik va turk tillarida nashrdan chiqqan. 1962 yil U. Normatov filologiya fanlari nomzodligi uchun dissertatsiya yoqlagan, 1978 yil doktorlik uchun dissertatsiya himoya qilgan. O‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan katta hissasi uchun O‘zRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi unvoniga musharraf bo‘ladi (1981), Hamza nomidagi Davlat mukofoti laureati (1989), O‘zR ta’lim a’lochisi (1992), “ToshDUNing mohir pedagogi” (1998). “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Tafakkur” jurnallarida o‘zining adabiy-tanqidiy maqolalarini chop etganligi uchun mukofotlar bilan taqdirlangan. 2006-yil 3-yanvar kuni 75 yoshga to‘ladi. Ushbu yubiley sanada O‘zbekiston Milliy universitetining o‘zbek filologiyasi kafedrasida uning barcha asarlari kafedra kutubxonasiga jamlangan, shuningdek, barcha asarlarining nomi sana tasnifi bilan yozilgan va ro‘yxat tuzilgan.

Asosiy qism

Ilmiy faoliyatida realizm masalalari, 20-asr o‘zbek adabiyoti, adabiy jarayon hamda adabiy tanqidchiligining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, Qodiriyl, Sh. Xolmirzayev, P. Qodirov, O‘. Hoshimov va boshqa ijodkorlarning asarlari bilan bog‘liq masalalar muhim o‘rin egallaydi. Umarali Normatov umumta’lim maktablarining 5- 9-11-sinflari uchun «O‘zbek adabiyoti» darslik va majmualari, olyi o‘quv yurtlari uchun «XX-asr o‘zbek adabiyoti tarixi» (1999) darsligi mualliflaridan biri. Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1989) Umarali Normatovni Rapqonda doimo yuksak hurmat bilan tilga olishar, televizordagi har bir chiqishi bir haftalar choyxonalardagi gurungni asosiy mavzusi bo‘lardi. Yoshi ulug’lar Ozod Sharafiddinovni Rapqonga Beshariq vokzalidan yuk mashinasida kelganliklarini faxr bilan gapirishadi. Ozod Sharafiddinov Rapqon qishlog’i markazida joylashgan paxta punktidan Umarali Normatov hovlisini so’raydi. Qorovul chol Umarali Normatovni akasi Haydarali Normatov paxta punkti direktori ekanligini, hali zamon kelib qolishini aytadi. Lekin Ozod Sharafiddinov qishloq ko‘chalari bo‘ylab Umarali akani uyini izlab ketadi. Domla hovlisini topganida Umarali Normatov boshqa ko‘chadan Kirov (hozirgi Beshariq) tumani markaziga Komsomol komitetiga ishga ketib bo‘lgan ekan. Ozod Sharafiddinov – Umarali akani otasi mulla Normat buva, akasi Haydarali aka bilan tanishadi. Birgina suhbat Ozod Sharafiddinovni bir umr Rapqonga bog‘lab qo‘yadi. Ozod Sharafiddinov Kirov tumani Komsomol komiteti birinchi kotibi oldiga kirib Umarali Normatovni Toshkentga olib ketishini aytib ishidan ruxsat oladi. Shu kuni Ozod Sharafiddinov va Umarali Normatovlar Toshkentga poyezdda qaytib ketishadi. Ozod Sharafiddinov ilmlı yigitlarni izlab uzoq, tog’ etagida joylashgan Rapqon qishlog’iga borishdan erinmaydi va adabiyotshunoslikda yangi bir olim Umarali Normatovni kashf qiladi. Ilmiy mavzu berib nomzodlik dissertatsiyasiga rahbarlik qilgan. Bugun o‘zbek tanqidchilagini, adabiyotshunosligini Umarali Normatovsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, muallim, olim, ijodkor Umarali

Normatov xarakteridagi muloyimlik, bilimdonlik, sermullohazalikning ildizi ota-onasining savodxonligiga bog'liq, menimcha. Normat qori buva nafaqat Rapqonda balki Farg'ona muzofotidagi Qur'oni yod biladigan savodli, insofli, adolatli insonligi bilan ham keng xalq ommasi hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan. Bunday ziyoli oilada tug'ilgan bolani o'qimishli, savodli bo'lmasligi mumkin emas edi.Umarali Normatov – tanqidchi. “Taqnidchi – alohida iqtidor sohibi. Tanqidchi – ijodkor. Yozuvchi hayot orqali kitobga boradi. Tanqidchi kitob orqali hayotga kiradi. U kitoblarni ochadi. Doim shu ma'noda kashfiyotga moyil. Muallimga eruditsiya suv va havodek zarur. Lekin tanqidchini eruditsiyasiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Eruditsiya etilgandagina tanqidchi etiladi” – degan edi O'zbekiston san'at arbobi, adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov. Umarali Normatov – ustozlari G'ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Subutoy Dolimov, Laziz Qayumov, Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shchanov, Ahmad Aliyev singari olim, muallim, ma'naviyatchi, ma'rifatchi, adabiyotshunos – tanqidchi bo'lishni orzuladi. Va bu orzusiga yetishdi. Mamlakatimizning bu ulug' olimlari bilan bir qatorda turib faoliyat ko'rsatdi, ular bilan adabiyot muammolari haqida bahslar olib bordi.O'zbekiston xalq shoiri, Guliston davlat universiteti professori To'ra Sulaymon: "Adabiyotshunoslар yozuvchilar va shoirlarni taqsimlab olishgan, "bor tavog'im kel tavog'im deganday" – degan edi. Umarali Normatov bunday tanqidchilar sirasiga kirmaydi. U yuragini junbushga keltirgan har qanday ijodkor asariga keskin munosabatini bildira olish hususiyatiga ega olimdir.Olimning har bir chiqishi xoh u gazeta-jurnalda, xoh televideniyadagi, radiodagi bahsda bo'lsin faqat rost gapni, yuragi buyurganini, yoqish-yoqmasligidan qat'iy nazar his-hayajon bilan ayta olishi bilan olimlar, ijodkorlar o'rtasida katta hurmat topgan.Umarali Normatov asarlarini ko'p o'qiganmiz, konspektlashtirganmiz, tengqur ijodkorlarni o'qishiga tavsiya qilganmiz, referat yozganmiz. Chunki, yangi adabiyotshunoslар, tanqidchilar yetishib chiqishida Umarali Normatov asarlari qo'llanma, darslik vazifasini bajaradi. Olim Abdulla Qahhorni nihoyatda yaxshi ko'radi. So'z sehrgari Abdulla Qahhor ijodiga bag'ishlab yuzlab maqolalar yozgan. Bundan tashqari Said Ahmad, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Mirmuhsin, Hamid G'ulom, Nazir Safarov, Rahmat Fayziy, Erkin Vohidov, Pirimqul Qodirov, Xudoyberdi To'xtaboev, O'tkir Hoshimov, Iqbol Mirzo, Isajon Sulton, Tog'ay Murod kabi ko'plab ijodkorlar asarlari haqidagi bahslarda faol. Olim adabiy jarayon, yozuvchilarining o'ziga xos hususiyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida to'lqinlanib yozadi va gapiradi.Adabiyotshunos olim Umarali Normatov mehnatni ulug'lovchi tanqidchiligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Chet ellardagi ijodkorlarda bir hususiyat ko'zga tashlanadi. Ya'ni kichik bir asar yozilsa ham u yozuvchini ko'klarga ko'tarib maqtash orqali yuksaltirish odati bor. Umarali Normatovda barcha ijodkorlar mehnatini ulug'lash, hurmat qilish, e'zozlash orqali rag'batlantirish hususiyati juda kuchli. Umarali Normatov nazm va nasrni birdek yaxshi tushunadigan va tahlil qila oladigan tanqidchilar sirasiga kiradi. Eng asosiysi

olim uzoq yillar hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti filologiya fakultetida faoliyat ko'rsatdi. Minglab yoshlarga adabiyot, tanqidchilik sir-asrorlarini o'rgatdi. Adabiyot o'qituvchilarini tayyorlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Olim faqat ma'ruza o'qish, dars o'tish bilangina emas balki maktab o'quvchilari uchun 5-9-11-sinflar uchun yaratgan darsliklari oliy o'quv yurti talabalari uchun "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" darsligini yaratilishiga katta hissa qo'shgan allomadir.Ustoz adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov Umarali Normatovga shunday degan ekanlar: "Ko'rib turibman, o'zingni ancha oldirib qo'yibsan. Birgina mushtga shunchalikmi?- dedilar kulib va qo'li bilan boshiga ishora qilib so'zida davom etdilar, - Bu boshga bunaqa mushtlardan son mingtasi tushgan, o'lib qolganim yo'q, mana tirik yuribman. Navoiy aytmoqchi, "Emas oson bu maydon ichra turmoq"... Adabiyot ishini chidaganga chiqargan!" Bu o'lmas, olg'a chorlatuvchi fikrlar Umarali Normatovga hurmat, mehr, sadoqat, ruhlantirish, yuksaltirish, maslahat vazifasini bajargan bo'lsa kerak. Adabiyotshunos olim, tanqidchi bo'lib yetishishida bunday samimi, mehrli fikrlarni, qo'llab-quvvatlashni ahamiyati katta bo'lganligi shubhasiz. Shuning uchun ham Umarali Normatov ustozlaridan olgan o'gitlari evaziga o'ziga o'xshagan samimi, rost so'zlarni doimo aytaladigan Hamidulla Boltaboyev, Bahodir Karim, Ulug'bek Hamdam, Dilmurod Quronov kabi yuzlab tanqidchilar, o'n minglab muallimlar yetishib chiqishiga katta hissa qo'shdi.Adabiyotshunos olim Umarali Normatovning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib baholandi. U "O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi" unvoni, Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi bo'ldi. Filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatovning hozirgacha ellikka yaqin adabiy-ilmiy, tanqidiy kitoblar, yigirma beshta darslik, o'quv qo'llanmalar, yetti yuzdan ortiq adabiy tanqidiy maqolalari mamlakatimizdagi va xorijdagi nufuzli jurnallarda e'lon qilingan. Olimning, ayniqsa, "Go'zallik bilan uchrashuv", "Umidbaxsh tamoyillar", "Yetuklik", "Qalb inqilobi", "Qodiriyl bog'i", "Qahhorni anglash mashaqqati", "Ijod sehri" kabi ellikka yaqin kitoblari yosh adabiyotshunoslari, tanqidchilar, muallimlar uchun darslik, o'quv-qo'llanmasi vazifasini bajarib kelmoqda.Munaqqidning matbuotda e'lon qilingan yuzlab adabiy-tanqidiy maqolalarida istiqlol davridagi adabiy jarayonlar sinchkov olim nuqtayi nazari bilan yoritib berildi.Umarali Normatov 1981-yilda "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan, 1989-yilda "O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati" bo'lgan, 2011-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda,Umarali Normatovning ilmiy, adabiy-tanqidiy tadqiqotlari yangi o'zbek adabiyoti tarixi, taraqqiyoti masalalariga, uning o'ziga xos an'analarini va novatorlik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ilmiy faoliyatida realizm masalalari, XX asr o'zbek adabiyoti, adabiy jarayon hamda adabiy tanqidchiliginining o'ziga xos

xususiyatlari, shuningdek, Qodiriy, Sh.Xolmirzayev, P.Qodirov, O'tkir Hoshimov va boshqa ijodkorlarning asarlari bilan bog'liq masalalar muhim o'rin egallaydi. Adib ijodida ana shunday o'ziga xosliklarni ko'rishimiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Sodiq S. Umarali Normatov -T.: 1990
- 2.Qo'shjonov M. Qalb va qiyofa -T.: "Fan", 1978
- 3.Normatov U. Janr imkoniyatlari. T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti",1970.
- 4.Normatov U. Yetuklik. T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti",1982.
- 5.Normatov U. Qodiriy bog'i. T.: "Yozuvchi", 1996.
- 6.Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. T.: " Ma'naviyat", 2000.

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING TA'LIM OLISHGA BO'LGAN HUQUQINING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

*Xudoyberdiyeva Gulinur Zokirjon qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti*

Annotatsiya. Dunyoda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash bugungi kunda dolzarb ahamiyatli masalalardan biriga aylandi. O'z navbatida bu toifa shaxslarni fuqarolik jamiyatining to'la huquqli a'zosi deb qabul qilish natijasida soha doirasida istiqbolli yo'naliishlar belgilandi. Istiqbolli yo'naliishlar sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi: nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatning teng huquqli a'zolari bo'lishini kafolatlash; nogironligi bo'lgan shaxslar huquqiy layoqatining tengligini qayd etish; nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishlarga qarshi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish; bundan tashqari, nogironligi bo'lgan shaxslarni sifatlari o'quv-ta'lim jarayonlari bilan ta'minlash bo'yicha xalqaro darajadagi huquqiy hujjatlarni amaliyotga joriy qilish. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, Salamanka dekloratsiyasi shular jumlasidandir.

Kalit so`zlar: Konvensiya, nogironligi bo`lgan shaxslar, huquq, chora-tadbir.

Jahonda alohida e'tiborga muhtoj shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya ko'plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilindi. Konvensianing xalqaro miqyosda jahon davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilinishi bu toifa shaxslar huquqlarini himoya qilish masalasida tizimli yondashuvlar yuzaga kelishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalda ta'minlash mamlakat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Xususan, respublikada nogironligi bo'lgan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay ijtimoiy muhitni yaratish dolzarb ahamiyatli masaladir. Bu toifadagi insonlarga yaratilayotgan imkoniyatlar asosida sog'lom jamiyat hayotiga integratsiyalashuvini to'g'ri yo'lga qo'yish ular hayotining ijobiy tomonga o'zgarishiga xizmat qiladi. Bu borada mamlakat milliy qonunchiligi doirasida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish juda muhim komponent hisoblanadi.

Ma'lumki, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash qonunchiligi takomillashib borar ekan, bu toifa shaxslar ta'lim tizimida ham sezila-rli o'zgarishlarni amalga oshirish, strategik maqsadlarga mo'ljallangan izchil islohotlarni to'g'ri tashkil etish va bu chora-tadbirlar negizida samaradorligi yuqori darajadagi ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish ehtiyoji ham oshib boraveradi. Shundan kelib chiqib, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqi va sohadagi qonunchilik asoslari, kafolatlari tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek ularni sohaviy xalqaro

andazalarga moslashtirish hayotiy zaruratga aylandi. Shu ma'noda, yoshlarni, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni sifatli ta'lim bilan qamrab olish masalasining nechog'li dolzarb ahamiyat kasb etishini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"da, uning mantiqiy davomi bo'lgan "Taraqqiyot strategiyasi"da, shuningdek, davlat rahbarining 2022-yil 20-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi parlamentiga yo'llagan prezent murojaatnomasida ham ko'rish mumkin. Unga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda¹.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Shu ma'noda, 2022-yil 20-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi parlamentiga yo'llagan prezent murojaatnomasida keltirilgan ibora mamlakatimizda samarali ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganligiga ishonch hosil qilish uchun bag'oyat muhim hisoblanadi. "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020-yildagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sod Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022], – deyiladi murojaatnomada. Ya'ni, nogironligi bo'lgan shaxslarni sifatli ta'lim bilan qamrab olishning to'g'ri va samarali yo'lga qo'yilishi bu toifa insonlarning jamiyatda o'z o'rinaligiga ega bo'lishlariga xizmat qiladi.

Kimlarni biz nogiron shaxslar deb ataymiz? O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuniga binoan, nogironligi bo'lgan shaxs ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs hisoblanadi.² Nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchasi masalasida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil olib borar ekanmiz, yuqorida qayd etilgan

¹ 2022-yil 20-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning parlamentga yo'llagan prezent murojaatnomasi

² "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun

fikrlarni mantiqan isbotlangan qarash sifatida baholay olmaymiz. Sababi, nogironligi mavjud shaxslarning nogironlik holatlari hamda darajalari faqat jismoniy cheklanish bilan tavsiflanmaydi. Shaxs jismonan sog‘lom bo‘lishi mumkin, biroq uning ruhiy yoki aqliy holati normal hayot talablari darajasidan past bo‘lishi ehtimolli holat hisoblanadi. Shaxsning aqliy, jismoniy yoki ruhiy tomonidan nosog‘lom bo‘lishi o‘sha shaxsning nogironlik kategoriyasiga mansub ekanligidan dalolat berib turadi. Bu tushunchani ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, nogironligi bo‘lgan shaxs tushunchasining tibbiy va ijtimoiy tomonlarini hisobga olgan holda bu borada quyidagi mualliflik ta’riflarini ilmiy muomalaga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Mavjud qonunchilik normalariga muvofiq, nogironligi bo‘lgan shaxslar fuqarolik jamiyatining to‘la huquqli subyekti hisoblanadi. Aynan mana shu jihat ushbu ta’rifning bosh mezoni sifatida olinishi lozim edi. O‘ylashimizcha, nogironligi bo‘lgan shaxs tushunchasiga quyidagicha ta’rif keltirsak, tushunchaning konseptuallik darajasi yanada mustahkamlangan bo‘ladi. Nogironligi bo‘lgan shaxs, belgilangan tartibda, maxsus huquqlar va umumiy majburiyatlarga ega bo‘ladigan, jamiyatning to‘la huquqli subyekti hisoblanadigan, jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor nuqsonlari mavjudligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qo‘sishma imtiyoz va shart-sharoitlar yaratilishiga ehtiyojmand shaxs hisoblanadi. Nogironlar huquq va erkinliklari “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi sohaviy qonun va bu qonun asosida ishlab chiqilgan qonunosti hujjatlar yordamida ta’milanadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning majburiyatlari umumhuquqiy mazmun kasb etib,O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida keltirilgan normalar asosida tartibga solinadi. Bu majburiyatlar sirasiga: qonunlarga rioya etish, o‘zgalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabilarni kiritishimiz mumkin. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsianing 57-moddasiga quyidagi norma kiritilgan: “Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqoni foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqiniksiz olish imkoniyatini ta’minalaydi”³.

Ta’lim olish huquqi fundamental huquq hisoblanib, u jamiyat taraqqiyotini ham, har bir shaxsning individual rivojlanishini ham belgilaydi. Ta’lim olish huquqi boshqa inson huquqlari bilan uzviy bog‘liqdir, negaki ta’lim olish huquqini ta’minalash va himoya qilish bo‘yicha me’yoriy hujjatlardan hamda huquqni qo‘llash amaliyotidan kelib chiqadi. Nogironlarning jahon hamjamiatidagi o’rni nogironlarning ta’lim olish huquqlari turli xalqaro va milliy qonun hamda normalar bilan himoyalangan. Ushbu huquqlar nogironlarning ta’lim olish va ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarga ega

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasiga binoan, har bir inson ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, ta'lim olishda hech bo'limganda boshlang'ich va umumiyligi ta'lim tekin bo'lishi lozimligi, boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerakligi, texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmosg'i kerakligi bayon qilingan. Eng avvalo, ta'lim olish huquqi madaniy hayotda ishtirok etishning kengroq huquqi, shuningdek, fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqi bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13-moddasida ta'lim olish, shu jumladan, otaonalarning maktab tanlash huquqi, shuningdek, bolalarning ya'ni, ularning farzandlarining diniy va axloqiy tarbiyasini ta'minlash huquqi mustahkamlangani beziz emas⁴. Ta'lim olish huquqining subyekti bola bo'lgan taqdirda, uning ta'lim olish huquqi ota-onasining fikrlash, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi bilan uzviy bog'liqdir. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi amaliyotida ta'lim olish huquqi bilan fikrlash, vijdon va e'tiqod erkinligi, shu jumladan, hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik erkinligi o'rta sidagi bog'liqlik masalasi bir necha bor ko'tarilgan. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ham har bir inson uchun ta'lim olishning ahamiyati katta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan nogironlar uchun ta'lim tizimini yaxshilash, ularning ta'lim olish huquqini himoya qilish va ushbu ishlar yuzasidan amaliy chora-tadbirlar ko'rish nogironlarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarining yanada musthkamlanishiga olib keladi.

Zero, dunyo bo'y lab bir milliarddan ortiq kishilarda "disability 2" formasi bor, deb taxmin qilinadi –ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rtacha yoki og'ir nogironlik bilan yashayotgan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning ko'p ekanligi achinarli holatdir. Mazkur raqamlarga qaramay, butun dunyo bo'y lab diskriminatsiyaning haqiqiy ko'lamini ko'rsatadigan aniq ma'lumotlarning etishmasligi mavjud. Ushbu holat nogironlarning ta'limi bilan bog'liq ma'lumotlarda ham o'z aksini topgan, Taxminiy raqamlar shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'y lab boshlang'ich maktab yoshidagi 62 millionga yaqin bola va boshlang'ich maktab ta'limini tugatmagan 186 million nogiron bolalar mavjud⁵.

Inklyuziv ta'lim nogironlarning nogiron bo'limgan tengdoshlari singari ta'lim faoliyati va sharoitlarida ishtirok etishlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy prinsipdir. Inklyuziv ta'lim tizimining asosiy xarakteristikasi shundaki, u har qanday narsani taqiqlamaydi: kamsituvchi amaliyot, bir xillikdan ko'ra farqni tan olishga yordam beradi, ko'pchilikni qamrab oladi va teng imkoniyatlarni kafolatlaydi va shuning uchun butun jamoaga foyda keltiradi. So'nggi yillarda inklyuziv ta'limning qonunlar, siyosat

⁴ Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktnogir

⁵ UNESCO, Empowering persons with disabilities through ICTs, p. 5, 2009, Paris, accessible at: <http://unesdoc.unesco.org/images/0018/001847/184704>

va amaliyotdagи istiqbollarini samarali ravishda kengaytirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro nogironlar yilining muhim natijasi 1982-yil 3-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan nogironlar uchun Butunjahon harakat dasturining qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu huquqiy hujjatda ta’kidlanganidek, “nogironlar bir xil guruh emas: aqliy kasal yoki aqliy zaif odamlar, ko'rish, eshitish yoki nutqida nuqsonlari bo‘lgan nogironlar, harakatlanish qobiliyati cheklangan yoki sog'lig'i bo'yicha nogironlar deb ataladigan nogironlar boshqa tabiatdagi to'siqlarga duch kelishadi”. Nogironlarning huquqlariga oid asosiy, keng qamrovli hujjatlardan biri bu Bosh Assambleyaning 1993-yil 20-dekabrdagi 48/96-sonli qarori bilan qabul qilingan Nogironlarning imkoniyatlarini tenglashtirish bo'yicha namunaviy qoidalardir. Ushbu huquqiy hujjatning 6-qoidasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi milliy ta’lim tizimi doirasida bo‘lishi, nogironlar davlat maktablarida o‘qish huquqiga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Shu jumladan, kar va kar-ko'rlearning maxsus muloqot ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning ta'limini maxsus maktablarda yoki bunday shaxslar uchun maxsus sinflarda yoki oddiy maktablardagi maxsus guruhlarda tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligi keltirib o‘tilgan.

1994-yil 7-10-iyunda bo‘lib o‘tgan maxsus ehtiyojlar uchun ta’lim bo‘yicha Butunjahon konferensiyasi Salamanka deklaratsiyasini va alohida ehtiyojli ta’lim bo‘yicha harakatlar asosini qabul qildi. Ushbu qonunchilik barcha mamlakatlar hukumatlarini “ta’lim tizimini “inklyuziv” qilish zarurligiga ustuvor e’tibor berishga chaqirdi; huquqiy yoki siyosiy tizimning tarkibiy qismi sifatida “inklyuziv” ta’lim tamoyilini kiritish; ko’rgazmali loyihalarni ishlab chiqish; davlatlar bilan almashinuvni rivojlantirish, bolalar va kattalar uchun ta’limni rejalashtirish, monitoring qilish va baholash usullarini ishlab chiqish; nogironlarning ota-onalari va tashkilotlarining ishtirokini ta’minalash; “inklyuziv” ta’limning kasbiy jihatlarini rivojlantirishni moliyalashtirish; o’qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha tegishli dasturlar mavjudligini ta’minalash kabi harakatlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ydi. 2000-yilda kattalar ta’limi bo‘yicha Gamburg deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjatning 22-bandи alohida ehtiyojmand shaxslarga bag’ishlangan bo‘lib, Salamanka deklaratsiyasiga muvofiq, aqliy va jismoniy nuqsonlari bo‘lgan odamlarning ta’limga qo’shilishi va undan foydalanish imkoniyatini targ’ib qilish kerakligi bayon qilingan.

Nogironlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi yakuniy va eng muhim xalqaro huquqiy hujjat Nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyadir. Ushbu konvensiya Bosh Assambleyaning 2006-yil 13-dekabrdagi 61/106 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. Nogironlar to‘g‘risidagi Konvensiyaning 24-moddasida nogironlarga yoshidan qat’i nazar kamshitishlarsiz va teng imkoniyatlar asosida barcha darajadagi inklyuziv ta’lim olish huquqi kafolatlanishi kerakligi bayon qilingan. Unda nogiron bolalar bepul va majburiy boshlang‘ich va o‘rta ta’limdan samarali foydalanishlari

kerakligi ko'rsatilgan; nogironligi bo'lgan kattalar umumiy oliv ta'lim, kasb-hunar ta'limi, kattalar ta'limi va umrbod ta'lim olish imkoniyatiga egaligi ta'kidlangan. O'zbekiston Nogironlar huquqlarini himoya qilish Konvensiyasiga 2009-yil 27-fevralda imzo chekdi.

Xulosa qilib aytganda, nogironlik – aqliy, ruhiy, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqiy holatini belgilab beruvchi tibbiy-yuridik maqomdir. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ta'lim bilan ta'minlash masalasi ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalişlaridan biri bo'lganligi sababli inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirish kerakligi barcha davlatlar uchun muhim ahamiyatga egadir. Inklyuziv ta'lim sog'lom jamiyatning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan yuzaga keladigan munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ya'ni, integratsion ta'lim nogironligi bo'lgan shaxslarni maxsus ta'limiy muhittga kirishib olishini kafolatlasa, inklyuziv ta'lim esa, bu toifa shaxslarni qo'shimcha shart-sharoitlar asosida umumiy ta'limda tahsil olishini ko'zda tutadi. O'yashimizcha, nogironligi bo'lgan shaxslar misolida integratsion ta'lim, inklyuziv ta'limning fundamental bosqichi sanaladi. Shu ma'noda, alohida e'tiborga muhtoj ta'lim oluvchilarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olishda bu toifa insonlarning nogironlik holatlari hal qiluvchi faktor sifatida namoyon bo'lishligini alohida ta'kidlab o'tishimiz shart. Shaxs nogironlik holatining og'irlik darajasi va toifasi ularni inklyuziv ta'limga munosib yoxud nomunosib ekanligini belgilab beradi va bu nogironligi bo'lgan o'quvchi talabalarni o'quv ta'lim jarayonlariga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitda nogironligi bo'lgan yoshlarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash, ularni sog'lom jamiyat muhitiga ortiqcha ijtimoiy to'siqlarsiz adaptiv moslashishini kafolatlash bu boradagi davlat islohotlarining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchi talabalarni inklyuziv shart-sharoitlar asosida bosqichma-bosqich umum ta'lim muassasalariga jalb etish, ularning huquqiy-ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, alohida e'tiborga muhtoj o'quvchi yoshlarni davlat va jamiyat uchun sifatli kadr qilib voyaga yetkazish muhim masalalardan biriga aylandi. Zero, O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq. Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak. Nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi".⁶

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi 29.12.2019 // <https://lex.uz/>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi.
 2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt.
 3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/4179>.
 4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021 y., 03/21/671/0093сон. II.
 5. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktyabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning xuquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz3>.
 6. Nazarova Ye.A. Konvensiya OON po pravam invalidov i vozmojnosti yevo realizatsii v Rossii: Statya. 2012 //
<https://cyberleninka.ru/article/n/konvensiya-oon-po-pravam-invalidov-i-vozmozhnosti-ee-realizatsii-v-rossii>
 7. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/report/>
- IV.2. <http://www.scienceforum.ru>.
- IV.3. <https://www.un.org>.
- IV.4. <http://lex.uz> <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-korrektionnyh-shkol-v-resursnoy-podderzhke-inklyuzivnogo-obrazovatelnogo-prostranstva>.
7. 2022-yil 20-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning parlamentga yo‘llagan prezident murojaatnomasi

**BOSHLANG'ICH TA`LIMDA O'QUVCHILARNING
INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA
QO'LLANILADIGAN O'YINLAR**

Jamatova Malika Sherqulovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanirishda qo'llaniladigan o'yinlar hamda o'yinlar vositasida o'quvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirish yo'llari, o'yinlar asosida o'quvchilarning ijodkorligini rivojlanirish, samaradorligi haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, ijodiy faoliyat, o'qitish, mashg'ulot, boshlang'ich ta'lim, o'quv jarayoni, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati, hamkorlikda o'qitish.

Аннотация: В данной статье игры, используемые в развитии интеллектуальных способностей учащихся начальных классов, и способы формирования интеллектуальных способностей учащихся посредством игр, освещены представления о развитии творческих способностей учащихся на основе игр и их эффективности.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, творческая деятельность, обучение, обучение, начальное образование, учебный процесс, учитель, деятельность учащихся, кооперативное обучение.

Abstract: In this article, games used in the development of intellectual abilities of students in primary education and ways of forming intellectual abilities of students through games, ideas about the development of creativity of students based on games, and their effectiveness illuminated.

Key words: intellectual ability, creative activity, teaching, training, primary education, educational process, teacher, student activity, cooperative education.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyati rivojlanishining muhim qismlari shundan iboratki ularning qo'shimch xotira zaxiralariga ega, chunki bu yoshda barcha kognitiv jarayonlarda o'zgarishlar boshlanadi. Yoshlarning tafakkuri intellektual rivojlanishining eng yuqori bosqichidir, chunki u obrazli tafakkur negizida shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual fikrlashni rivojlanirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish kerak. Shuni yodda tutish lozimki, mantiqiy fikrlashning rivojlanish jarayoni har tomonlama va tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunday ishlarni nafaqat sinfda, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham

bajarsa bo'ladi. Faoliyatning ushbu turida o'qituvchining asosiy vazifasi yosh bolalar uchun qulay va maqbul bo'lgan turli shakl va usullarni malakali tanlashdir. Umumta'lim fanlari yordamida o'quvchilar: taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tahlil qilish va boshqalar kabi jarayonlarni o'zlashtiradilar. Tafakkur jarayoni nazariy va amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi, bu unga kiritilgan tadqiqot, transformatsion va kognitiv harakatlar tizimini o'z ichiga oladi. Tafakkur bilishning sezgir darajasida bevosita idrok etib bo'lmaydigan o'zimizni o'rab turgan olamning shunday obyektlari, xususiyatlari va munosabatlari to'g'risida bilimlarni olish imkonini beradi.

Bu jarayonda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'yinlar quyidagicha tasniflanadi:

O'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagagi ahamiyatliligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. Bir tamondan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandard vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytalarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyatni ham kasb etadilar. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop oyinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir. Ishbop o'yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo'lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlari tizimini modellashtirishdir.

Ishbop o'yinlarni o'tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o'yin tarzida) imitatсиya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O'yinlarning xarakteriga ko'ra o'quv jarayoni o'yinlari tadqiqotchilik o'yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o'yinlar turiga bo'linadi. O'quv jarayoniga doir o'yinlar o'quv predmetlar bo'yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ma'lumki, ta'lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariiga mos xolda amalga oshadi.

Inson hayotida o'yin faoliyati quyidagi funksiyalarni bajaradi:

kundalik ishlardan chalg'ish uchun ovunmoqlik (maza qilish, qiziqish uyg'otish, ilhomlantirish - bu o'yining asosiy funksiyasidir);

komunikativlik: muloqot diayektikasini o'zlashtirish;

inson amaliyoti poligoni sifatida o'yinda o'zini ko'rsatish;

o'yin – terapiya: hayot faoliyati davomida paydo bo'ladigan turli to'siqlardan oshib o'tish;

tashhislovchi: o'yin jarayonida o'zini anglash, normal hatti–harakatlardan chetlanganlikni aniqlanishi;

korreksiyalash funksiyasini bajarishi: shaxsiy ko'rsatkichlar tarkibiga pozitiv o'zgarishlarni kiritish;

millatlararo kommunikatsiyalar: barcha insonlar uchun yagona bo'lgan ijtimoiy-qadriyatlarni o'zlashtirish;

ijtimoiylashuv: jamiyat munosobatlari tizimiga kirgizish, insoniyatning umumiy yashash normalarini o'zlashtirish.

Faoliyat sifatida o'yin tarkibiga uzviy ravishda rejalashtirish, maqsadni amalga oshirish hamda shaxs o'zini subyekt sifatida o'zligini nomoyon etishdagi natijalari tahlili kiradi. O'yin faoliyatining motivi uning ixtiyoriligi, tanlash imkoniyati va musoboqa elementlari, o'zlikni nomoyon qilishga bo'lgan talabni qanoatlantirishi bilan ta'minlanadi.

Jarayon sifatida o'yin tarkibiga: a) o'yinchilar tomonidan o'ziga olingan rol; b) bu rollarni amalga oshirish vositasi sifatida o'yin harakatlari; v) predmetlarni o'yinlarda qo'llanilishi, ya'ni real buyumlarni o'yinlardagi ma'lum bir shartlar bilan almashtirilishi; g) o'yinchilar o'rtaсидаги real munosobatlar; d) mazmun – o'yinda shartli ravishda qabul qilingan muhit sohasi kiritiladi. O'yin ta'lim berish metodi sifatida, keksa avlodning yosh avlodga o'z tajribalarini o'tkazish maqsadida qadimdan foydalanib kelingan. O'yinlarning keng qo'llanilishini xalq pedagogikasida, maktabgacha va maktabdan tashqari muassalarda kuzatish mumkin.

Zamonaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'yin faoliyatidan quyidagi holatlarda foydalaniladi:

- tushuncha, mavzu va hattoki o'quv predmetining ba'zi bo'limlarini o'zlashtirish uchun mustaqil texnologiyalar sifatida;

- nisbatan keng ko'lamli bo'lgan texnologiyalar (ba'zida sezilarli darajadagi muhim) elementi sifatida;

- mashg'ulot (dars) yoki uning qismi (kirish, tushuntirish, mustahkamlash, mashqlar, nazorat) sifatida;

- sinfdan tashqari ishlar texnologiyasi sifatida (masalan, svetafor, quvnoq startlar va boshqalar). "O'yin pedagogik texnologiyalari" tushunchasi o'zida yetarli darajada keng bo'lgan metodlar va turli pedagogik o'yinlar shaklidagi pedagogik jarayonning tashkil qilish usullarini jamlaydi.

Ana shu ma'noda ta'limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o'zaro birlashib, o'yin faoliyati shaklida o'quvchilarning faolligi ortadi. Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo'ladi. 60-70-yillardan boshlab faqat boshlang'ich ta'limda emas, umumiy o'rta ta'limda ham foydalanila boshladи.

Ijtimoiy- psixologik ahamiyati jihatidan o'yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi; - *ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash*; - *zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish*. Shuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobilyatini o'stiradi. Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. AdizovB.R.Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.- Toshkent: Fan, 1997.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Dilova N.G. (2014). Значение процесса педагогического сотрудничества в формировании личности учащихся начальных классов. Сборники конференций НИЦ Социосфера. № 26, С. 190-193.
4. Расулова З.Д. (2020). Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. Вестник науки и образования. № 21 (99), часть 2, С. 37-40.
5. Dilova N.G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 506-514 betlar.
6. Расулова З. (2021). Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ўкув жараёнларини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 349-359 бетлар.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA DARS MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH METODLARI

*Nurmamatov Abdugodir Abdugaxxon o'g'li
Namangan muxandislik texnologiya instituti
“Informatsion texnologiyalari” kafedra assistenti*

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari internet, elektron hisoblash tizimlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o'qitish usullari bilan to'ldirilmoqda. Internet-texnologiyalari asosidagi tele-ta'lismi va masofaviy ta'lismi bir qator yangi funksiyalarni bajarishdan tashqari, o'zaro taqsimlangan hamkorlik, integratsiya, xalqaro Internet tarmog'iga kirish kabi muayyan tamoyillarni amalda qo'llashni talab qiladi.

Kalit so'zlar: ilyustratsiyalash, kompyuter o'yinlari, gamifikatsiya, tadqiqodchilik, reproduktiv.

KIRISH

XI asrda insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida yangi davr – axborot jamiyat davri boshlandi. Axborot va telekommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalarining jadal tarqalishi, jamiyat taraqqiyotining globallashuvi, xalqaro kommunikativ hayot muhiti, ta'lismi, aloqa va ishlab chiqarishning shakllanishi, infosferaning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Axborot jamiyatining tashkiliy-texnologik asosini global axborot tarmog'i – Internet tashkil etadi.

Global Internet tizimining rivojlanishi jahon ta'lismi tizimini evolyutsion takomillashtirish uchun yangi istiqbollarni ochdi. Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari internet, elektron hisoblash tizimlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o'qitish usullari bilan to'ldirilmoqda. Internet-texnologiyalari asosidagi tele-ta'lismi va masofaviy ta'lismi bir qator yangi funksiyalarni bajarishdan tashqari, o'zaro taqsimlangan hamkorlik, integratsiya, xalqaro Internet tarmog'iga kirish kabi muayyan tamoyillarni amalda qo'llashni talab qiladi.

Bugungi kunda aksariyat yoshlarning soatlab kompyuter ekrani qarshisida o'tirishi xech kimga sir emas. Faqat shunisi achinarliki, ular ana shu vaqtlarini qandaydir “o'zga sayyoraliqlar bilan kurashish” yoki “maxsus xizmatning maxfiy topshiriqlarini bajarish” bilan o'tkazadilar. Chunki yoshlar uchun kompyuter, eng avvalo o'yinchoq kabi oddiy ko'ngil ochar vosita. Shuning uchun odatda ularning kompyuter bilan tanishuvi kompyuter o'yinlari orqali amalga oshadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, kompyuter o'yinlari juda qudratli ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. G'oyaviy va grafik jihatdan mukammal yaratilgan,

kishining butun diqqat-etiborini o‘ziga torta oladigan kompyuter o‘yinlari har qanday o‘quvchining ruhiy holatiga ta’sir qila olish xususiyatiga ega. Vayronkorlik, qonxo‘rlik, zulm, zo‘ravonlik kabi tuban g‘oyalar olg‘a surilgan o‘yinlarni muntazam o‘ynashlari natijasida yoshlarda bunday tushunchalarga nisbatan befarqlik tuyg‘usi shakllanishiga yo‘l ochiladi. Shunday ekan global ravishda rivojlanish bilan bir qatorda turli mafkuraviy taxdidlar yuzaga kelayotgan bir davrda, yosh avlod qalbida milliy g‘oya va sog‘lom dunyoqarashni mustahkamlash, ularni xar qanday ma’naviy tajovuzga qarshi sobit tura oladigan, mustaqil fikrga ega, barkamol inson qilib tarbiyalash xar birmizning burchimizdir.

FOYDALANILADIGAN METOD

Ta’lim jarayonlari amaliyotida o‘qitishning to‘rtta asosiy metodidan foydalaniladi[9]. Bular: - tushuntirish-illyustratsiyalash; - reproduktiv; - muammoli; - tadqiqotchilik. O‘qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan tadqiqotchilik metodi ta’lim oluvchilarning ma’lum tematika doirasida ilmiy-texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatini ko‘zda tutadi. Bu metoddan foydalanilganda ta’lim faol tadqiqot, kashfiyot va o‘yin natijasi sanaladi, buning natijasida, odatda, yuqorida sanab o‘tilgan metodlardan foydalanilganidan ko‘ra yoqimliroq va muvaffaqiyatliroq bo‘ladi. O‘qitishning muammoli metodi metod, ob’ekt va vaziyatlarni ularga ta’sir o‘tkazish jarayonida o‘rganishni ko‘zda tutadi. Muvaffaqiyat qozonish uchun ta’sirlarga reaksiya qiladigan muhitning bo‘lishi zarur. Bu ma’noda tengsiz vosita modellashtirish, ya’ni real ob’ekt, vaziyat yoki muhitning dinamikada imitatsion tasavvuri sanaladi. Kompyuter modellari o‘zining nozikligi va universalligi tufayli boshqa tur modellariga qaraganda qator jiddiy ustunliklarga ega. Modellarni axborotkommunikatsiya texnologiyalarida qo‘llash vaqtning borishini sekinlashtirish yoki, aksincha, tezlatish, makloni toraytirish yo kengaytirish, qimmat, xavfli yoki real dunyoda umuman mumkin bo‘lmagan amallarning bajarilishini imitatsiyalash imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining ta’limning boshqa texnik vositalariga qaraganda asosiy ustunliklari nozikligi, ta’limning turli modellari va algoritmlariga sozlash, shuningdek har bir ta’lim oluvchining xatti-harakatlariga yakka tartibda reaksiya qilish imkoniyati sanaladi. Bunday vositalardan foydalanish ta’lim jarayonini yanada faollashtirish, unga tadqiqotchilik va izlanuvchanlik xarakterini bag‘ishlash imkonini yaratadi. Darsliklar, televidenie va kinofilmlardan farqli o‘laroq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim oluvchining xatti-harakatiga zudlik bilan javob berish, turli toifadagi ta’lim oluvchilar uchun materialni takrorlash, tushuntirish, puxtarloq tayyorgarlikka ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar uchun yanada murakkab va o‘ta murakkab materialga o‘tish imkoniyatini ta’minlaydi. Bunda individual sur’atlarda o‘qitish oson va tabiiy tarzda amalga oshiriladi. Bilimlar hajmining ortib borishi va tahlil metodlarining murakkablashishi bilan ta’limni asosan

ma’ruzalarni passiv tinglash hamda o‘quv matnlarini o‘qish tamoyili asosida tashkil etish tobora qiyinlashib bormoqda. Tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni tushunish va hal qilish malakalari, juda katta hajmdagi dastlabki ma’lumotlarni foydali umumlashtirish qila olish qobiliyati – bularning hammasi katta ahamiyat kasb etib, talabidan yanada faol bo‘lishni talab etadi. Aynan, shu nuqtai nazardan kompyuter ta’lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlar taqdim qiladi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining amaliy tomoni ulardan o‘quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta’lim tizimida o‘quv jarayoni uchun ma’lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalgalashishga zamin hozirlaydi.

Kompyuter o‘yinidan foydalanishning na’munaviy ssenariysi Tasavvur qiling, o‘quvchi kechasi bilan uyida biror tarixiy davr yoki shaxs bilan bog‘liq kompyuter o‘yinini o‘ynab, ertasiga darsga kelsa, o‘qituvchi aynan o‘sha davr adabiyoti yoki tarixini (tasodifan bo‘lishi mumkin-ku!) og‘zaki ravishda, boringki qandaydir surat yoki video materiallar bilan tushuntirishga harakat qilsa. Nima deb o‘ylaysiz, kechagina o‘yin vositasida o‘zi shu davrda “yashagan” o‘quvchi uchun bu dars qiziq bo‘lishi mumkinmi? Dars davomida (yoki to‘garak mashg‘ulotlarida) o‘quvchining o‘yinidan-da qiziqarliroq, shu bilan bir qatorda mavzuga to‘la mos keladigan o‘yindan foydalanilsa-chi? Qanday deysizmi? Taxminan quyidagicha: Mavzu: “To‘maris” afsonasi (yoki Shiroq afsonasi) Kompyuter o‘yining interfeysi va imkoniyatlariga bo‘lgan talablar: O‘yin interfeysi va imkoniyatlarini yaratishda “To‘maris” afsonasida ishtirok etgan tarixiy shaxslar, qo‘sish bo‘linmalari va ularning bo‘lajak jangdagi vazifasi, o‘sha davrda qo‘llangan qurollar, geografik joy nomlari, sana va ob-xavo sharoiti, jang maydonining taxminiy rel’efidan foydalanilgan bo‘lishi kerak. O‘yindagi tarixiy shaxs va bo‘linmalarni o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda bir yoki bir necha o‘quvchi bir-biridan mustaqil ravishda boshqara olishi va albatta o‘yinda kompyuter tarmog‘idan foydalanish imkoni bo‘lishi lozim. Bundan tashqari darsga oid unutilgan bilimlarni yodga solish uchun ma’lumotnomalar tizimi bo‘lishi kerak. O‘yin xar safar yuklanganda To‘maris va u yashagan davr, Eron shohi hamda uning xukmronligi bilan bog‘liq tarixiy faktlar, mavzuning mazmuni videorolik, multfilm yoki xujjatli film sifatida qisqacha eslatib o‘tilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mashg‘ulotni tashkil etish:

O‘quvchilar umumiyligi ikki guruhga bo‘linadi. Ulardan biri To‘maris qo‘sini, ikkinchi guruh dushman qo‘sini boshqaradi (dushman qo‘sini boshqarish kompyuter zimmasiga yuklansa, sinf o‘quvchilari bir jamoa bo‘lib ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi). O‘yining imkoniyatidan kelib chiqqan holda har bir guruh yana bir necha kichik guruhlarga bo‘lingan holda yoki har ikki guruh a’zolari (keyingi o‘rinlarda umumiyligi holda A’ZO) mustaqil ravishda biror tarixiy shaxs yoki qo‘sish bo‘linmasini boshqarishi lozim. To‘maris yoki bo‘linma sardorlari sifatida boshqalarga

nisbatan mukammalroq nazariy bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilardan tanlab olinishi mumkin. O‘yindagi tarixiy shaxs yoki qo‘sish bo‘linmasining alohida a’zo tomonidan boshqarilishi u yoki bu tomonning o‘yinda g‘alaba qozonishi uchun har bir a’zoning ma’lum bilimlar bilan qurollanishini taqozo etadi. Guruh a’zolari qanchalik ko‘p bilim va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lsalar, ularning g‘alabaga erishlari shunchalik oson bo‘ladi.

Mashg‘ulot natijasida erishiladigan yutuqlar: 1. To‘maris yoki bo‘linma sardorlari sifatida boshqalarga nisbatan mukammalroq nazariy bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilardan tanlanishi o‘quvchilar o‘rtasida bilim jihatdan raqobatlashish ruhini uyg‘otadi. Ular sardorlarni boshqarish huquqini qo‘lga kiritish uchun ham ko‘proq mustaqil o‘qishga harakat qiladilar; 2. A’zolarda har qanday muammoni bir jamoa bo‘lib, axil xal qila olish ko‘nikmasi shakllanadi; 3. O‘quvchilarning mavzuga oid tarixiy shaxslar, qurollar, davrning ijtimoi yiqtisodiy va siyosiy sharoiti, atamalar hamda tarixiy voqealar bilan bog‘liq bilimlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlanadi; 4. Mustaqil yurtimiz tinchligini saqlashga xizmat qiladigan muntazam professional qo‘shinimizga strategik fikrlash qobiliyati yoshlikdan shakllangan xarbiy kadrlarni etishtirib berish imkonini tug‘iladi; 5. Asosiysi o‘quvchilar o‘yindan estetik zavq olishi natijasida ularda fanga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi; 6. O‘yinda kutilmagan holatlarning yuzaga kelishi nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilardan ham doimiy izlanishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Низомова Шохиста Шодиевна (2020). Способы использования компьютерных развивающих игр в дошкольном образовании. Проблемы педагогики, (6 (51)), 51-52.
2. Султанова, В. С., & Емельянова, Т. В. (2021). Компьютерные дидактические игры как средство формирования коммуникативных умений младших школьников. Актуальные вопросы теории и практики развития научных исследований, 30-32.
3. Варченко, В. И. (1998). Дидактические условия использования компьютерных технологий в начальной школе (Doctoral dissertation, ВИ Варченко).
4. Фадеева Клара Николаевна, & Герасимова Алина Германовна (2021). Использование инновационных информационно-коммуникационных технологий при обучении студентов вуза: Элементы геймификации. Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. И. Я. Яковleva, (4 (113)), 211-219.
5. Гусев Иван Евгеньевич (2020). Геймификация как инструмент совершенствования профессиональной деятельности педагога в цифровом обществе (обзор публикаций). Проблемы современного педагогического образования, (68-1), 86-91.
6. Begimkulov U.Sh. va b. (2011). Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya, Toshkent, 7-11 betlar.
7. С Зокиров, Г Рахматова. Использование компьютерных игр в современном образовании: проблемы и решения. Engineering problems and innovations, 27-34.
8. С Зокиров, Г Рахматова, З Кадирилиева. Современные методы подготовки высококвалифицированных кадров в области компьютерной инженерии. Engineering problems and innovations. 54-57.

ФАРГОНА ВИЛОЯТИ МУЗЕЙЛАРИ ТАРИХИ ВА АРХЕОЛОГИК ЭКСПОНАТЛАРИ ҲАҚИДА

Нурмуқҳаммадов Азизбек

*Наманган Давлат Университети Тарих факултети
70220401 Археология мутахасислиги магистранти*

Телефон: +998937767067

quyosh0817@gmail.com

Анонотация: Мақолада Фарғона вилояти музейлар тарихи, уларнинг босиб ўтган босқичли поғоналари, ташкил этишда раҳбарлик қилган шахслар ва археологик, тарихий экспонатлари ҳақида маълумотлар баён этилган. Тадқиқотчи, илмий изланувчилар учун муҳим манба бўлиб хизмат қиласади. Кейинги мақолаларимизда вилоятнинг ҳар бир музейининг ноёб экспонатлари ҳақида фото иловалар билан ёритиб боришини мақсад қилдик.

Калит сўзлар: “Фарғона вилояти халқ музейи”, «Фарғона шаҳрининг илмий музейи», “вилоят ўлкашунослик музейи”, М. Н. Янцин, П. М. Никифоров, А. Н. Волков, С. Алибеков, Н.Абдулахатов, Б.Ҳошимов, Н. Г. Горбунова, Б. З. Гамбург,

Фарғона тарихи ва маданияти давлат музейи депозитарийларида юқоридаги барча даврларга оид бой ашёлар жамланган. Музей экспонатлари сони умуман олганда 100 мингдан ошади. Бу музей Ўзбекистондаги энг қадими музейлардан биридир. 1984 йил кузида Янги Марғилон (ҳозирги Фарғона) шаҳрида ўтказилган қишлоқ хўжалиги ва саноат қўргазмаси унинг учун асосий қўргазма бўлди. Орадан бир йил ўтиб, 1885-йил 2-ноябрда Фарғона вилояти ҳарбий губернаторининг буйруғи билан вилоят ҳокимлигининг 2-қаватидан музей учун 4 хона ажратилди.

Музейнинг Устави 1897-йилда тасдиқланган бўлса, 1899-йил 26-майда “Фарғона вилояти халқ музейи”нинг (музейнинг асл номи) тантанали очилиш маросими бўлиб ўтади. Бу вақтга келиб музейда 2223 та ашё ва китоблар жамланган эди. Музей губернатор уйининг орқа хонасида жойлашган бўлиб, одатда дам олиш ва байрам кунлари очиқ бўлган. Ёки у ҳурматли меҳмонлар учун маҳсус очилган.

1911-йилда музей ёпилишига тўғри келди ва фақат 1920-йилда Фарғонадаги сиёсий вазиятнинг ўзгариши муносабати билан ҳокимиёт кенгашдан ўтганидан кейин музей қайта очилди. Бу вақтга келиб унинг мақсад ва вазифалари бутунлай ўзгарди. Музей «Фарғона шаҳрининг илмий музейи» деб атала бошланди. У Константиновская (ҳозирги Турон) кўчасидаги бинолардан бирида жойлашган эди. 1984 йилгача музей ушбу бинода ишлаган.

1922-1927 йилларда музей экспозициясида қишлоқ хўжалиги, хунармандчилик, нумизматика, табиат, тарих ва этнография бўлимлари мавжуд эди.

1928 йилда янги археология, 1932 йилда эса инқилоб кафедраси очилди. 1938 йилдан музей ўз фаолиятини “вилоят ўлкашунослик музейи” сифатида

бошлаган. Бу вақтга келиб, музейда табиий тарих ва тарих ва социалистик қурилиш экспозициялари мавжуд. Экспонатлар сони 15 мингдан ошди.

Иккинчи жаҳон уруши йилларида музей ўз фаолиятини янада фаоллаштироқда, унинг ходимлари фарғоналикларнинг фронтдаги жасорати, фидокорона меҳнати ҳақидаги ҳужжатлар билан фондларни бойитмоқда.

1950 йилдан буён музей археология соҳасида фаолият юритади. 1951-1956 йилларда. Музей фонди 3000 дан ортиқ археологик ашёлар билан тўлдирилди. Гарчи, музей очилганда, унда атиги 2 та археология обьекти мавжуд эди. Музейнинг археология фонди бугунги кунгача Фарғона водийсидаги энг бой коллекциялардан бирига эга. Булар археологик тадқиқотлар натижасида топилган тош даври қуроллари, лой ва бронза буюмлар, шунингдек, водийдан топилган кўплаб буюмлардир.

Музей фондининг асосий қисмини 19-асрнинг иккинчи ярмидан ҳозирги кунгача бўлган Фарғона водийси аҳолиси ҳаётини акс эттирувчи негативлар, фотосуратлар ва ҳужжатлар, шунингдек, ҳалқимизнинг қадимий ва янги тарихига оид моддий мерос обьектлари ташкил этади.

Музей фондининг асосий қисмини 19-асрнинг иккинчи ярмидан ҳозирги кунгача бўлган Фарғона водийси аҳолиси ҳаётини акс эттирувчи негативлар, фотосуратлар ва ҳужжатлар, шунингдек, ҳалқимизнинг қадимий ва янги тарихига оид моддий мерос обьектлари ташкил этади. минтаقا.

Музейда Фарғонанинг ilk профессионал рассомлари М. Н. Янцин, П. М. Никифоров, А. Н. Волков, С. Алибеков, шунингдек, замонавий рассомларнинг асаллари ўзида жамланган тасвирий санъат коллекцияси ҳам мавжуд. Риштон ва Ғурумсарай кулолчилик буюмлари, мис ва заргарлик буюмлари, тўқимачилик коллекцияси, шунингдек, турли кашта нақшлари ташриф буюрувчилар эътиборини тортади.

1985 йилдан буён музей янги, замонавий, мақсадли қурилган бинода ишламоқда. Айни пайтда музейда водийнинг 20-аср бошларигача бўлган тарихини акс эттирувчи ва минтақа табиатини акс эттирувчи экспозиция ташкил этилган. Бу қўргазмалар тарихимиз ва маданиятимизнинг ўзига хос мероси бўлиб, замонавий диорамалардан иборат.

Мустақиллик йилларида музейнинг вилоят ижтимоий ҳаётидаги ўрни кескин ошди. Ҳалқимизнинг бой ва бетакрор тарихини қайта тиклаш ва ўрганишда музейнинг малакали ходимларининг ўрни, айниқса, беқиёс. Айнан уларнинг саъй-ҳаракати туфайли муҳим саналарни нафақат давлат миқёсида, балки ҳалқаро миқёсда ҳам нишонлаш имконияти яратилмоқда. Буюк ватандошимиз Аҳмад ал-Фарғоний таваллудининг 1200 йиллиги, Бурҳониддин ал-Марғилонийнинг 900 йиллик юбилейлари бунинг ёрқин мисолидир.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 1998-йил 12-январдаги 1913-сонли “Музейлар фаолиятини такомиллаштириш ва такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг 1998-йил 5-мартдаги 1-сонли қарори. 98-сонли “Музейлар фаолиятини қўллаб-куватлаш масалалари тўғрисида”ги қарори музейлар фаолиятини янада фаоллаштиришга турткни бўлди. Бугунги кунда Фарғона вилояти ўлкашунослик музейда илмий-тадқиқот ишларини олиб боришда ёрдам берадиган барча

турдаги замонавий техник жиҳозлар мавжуд. Музей ходимлари томонидан кўплаб монографиялар нашр этилган. Музей катта илмий ходими Г.П.Ивановнинг Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Археология институти билан ҳамкорликда икки тилда (ўзбек ва инглиз) “Шаҳар Аҳмад ал-Фарғоний”. Н.Абдулахатов ва Б.Хошимовлар эса “Аҳмад ал-Фарғоний”, “Мўйи муборак”, “Бурҳониддин ал-Марғилоний ва унинг ворислари даври” каби қатор рисолаларни нашр этиб, кенг шухрат қозонди. Шунингдек, музей ходимларининг илмий ва илмий-оммабоп мақолалари ҳар йили республикамиз ва хориждаги илмий нашрларда чоп этилиб келинмоқда.

Фарғона тарихи музейи Ўзбекистон Республикасидаги энг кекса музейларидан биридир. Музейга ilk бор 1894-йилда Янги Марғилон (Хозирги Фарғона шаҳри) шаҳрида ўтган савдо кўргазмаси вақтида асоса солинган. Орадан маълум бир вақт ўтиб, 1895-йилда Фарғона вилояти ҳарбий Губернатори томонидан Губернаторлик биносининг, Губернатор хонаси яқинида Фарғона водийсига оид тарихий буюмларни сақлаш учун 2 та хона ажаратилган. 1897-йилда музейнинг низоми тасдиқланган бўлса, 1899-йилнинг 26-май куни „Фарғона вилоят халқ музейи“нинг (унинг биринчи номи шундай эди) тантанали очилиши бўлиб ўтди. Бу вақтга келиб музейда 2223 дона тарихий буюм ва китоблар йиғилган эди.

1911-йилда Фарғона шаҳридаги ўзгаришлар натижасида музей ёпилди ва фақат 1920-йилда Фарғонадаги сиёсий тузимнинг ўзгариши натижасида, ҳокимиёт советлар қўлига ўтгач, музей қайта очилди. Бу вақтга келиб музейнинг мақсад ва вазифаси ҳам бутунлай ўзгарган эди. Музейнинг номи эса, „Фарғона шаҳар илмий музейи“ деб атала бошлади. Музей эски Константиновская кўчасидаги биноларнинг бирида 1984-йилга қадар фаолият олиб борди. 1985-йилдан Фарғона шаҳрининг бошқа қисмига, маҳсус музей учун қурилган бинога кўчиб ўтди.

1922—1927-йилларда музей экспозициясида қишлоқ хўжалик, хунармандчилик, нумизматика, табиат, тарих ва этнография бўлимлари мавжуд эди.

Фарғона шаҳридаги Фар‘она дарвозасининг эски кўриниши музей бўлимларидан биридан ўрин олган.

1938-йилдан эса, музей „Вилоят ўлкашунослик музейи“ номи остида фаолият кўрсата бошлади. Бу вақтга келиб экспонатлар сони 15 мингдан ошган эди. 1951-1960-йиллар оралиғида Ленинград университети битиравчилари ва кейинчалик музейда ҳодим бўлиб ишлаган Н. Г. Горбунова ва Б. З. Гамбурглар изланиши ва ўлка, Фарғона водийсига оид қазилма ишларини олиб бориши натижасида музей 5000 га яқин тарихий ва археологик буюмларга бойиди.

1870—1910-йилар оралиғидаги Фарғона тарихи

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгач, Фарғона вилоятнинг ижтимоий ҳаётида музейнинг роли кескин ортди. Фарғона Водийсининг тарихий алломалари Аҳмад ал-Фарғонийнинг 1200 йиллик ва Бурҳониддин ал-Марғилоний нинг 900 йиллик юбилейлари Фарғона тарихи музейи ходимларнинг сайи харкатлари натижасида амалга оширилди.

Ўзбекистон Республикаси биринчи президенти Ислом Каримовнинг 1998-йил 12-январдаги 1913-сонли „Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида“ти Фармони, Вазирлар Маҳкамасининг 1998-йил 5-мартдаги 98-сонли „Музейлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш масалалари тўғрисида“ти ва 2002-йил 9-январдаги „Ноёб заргарлик санъати асарларини асраган ҳолда фойдаланиш ва сақланишини таъминлаш бўйича қўшимча чоралар тўғрисида“ти қарорлари музей фаолиятини янада жонлантириб юборди.

Бугунги кунда Фарғона вилоят ўлкашунослик музейи барча турдаги замонавий техника воситалари билан таъминланган бўлиб, улар илмий-тадқиқот ишларида катта самара бермоқда.

Ҳозир музейда 5 та (тарих, табиат, санъат, илмий-оқартув ва фонд) бўлим ва 10 та (тасвирий санъат, метал ва сопол буюмлар, маҳсус, мато буюмлар, хужжатлар, газета ва плакатлар, ёғоч буюмлар, археология ва нумизматика, табиат, фотонегатив ва суратлар) заҳирахоналар фаолият кўрсатиб турибди. Музей биноси 3 қаватдан иборат бўлиб асосий кўриш зали иккинчи қаватда жойлашган. Музейнинг хорижий мамлакатлардаги музейлар билан ҳам ҳамкорлик (Англия, Япония, Россия) ишларини амалга оширади. Шунингдек, Тошкент шаҳрида 1980—1990-йиллар оралиғида Фарғона музейи тарихий экспанатлари билан бир неча кўргазмалар ташкил этилган.

Шунингдек, бугунги кунда Фарғона вилояти ўлкашунослик музейининг туманларда 8 та тармоғи мавжуд.

Xulosa qilish mumkinki, Farg’ona viloyati muzeylari O’rta Osiyo hududida eng dastlabki tashkil etilgan muzeylar bo’lib, muzeylardagi eksponatlarni tadbiq etish, ularni sonini ko’paytirish, kelajak avlodga yetkazish arxeolog va tarixchi tadqiqotchi, ilmiy izlanuvchilar maqsadiga qo’yilgan muhim sohadir.

Foydalanilgan manbalar ro’yhati

- 1.<https://uz.wikipedia.org.>wiki>
- 2.<http://ferganatourism.uz>fer...>
- 3.Amaliy kuzatish natijalari

**ТЕРГАЧИ АРХЕОЛОГИК ЁДГОРЛИГИ-ИЛМИЙ
ЎРГАНИШЛАРНИ КУТМОҚДА**

Хасанов Бахром Ибрагимович
*Наманган Давлат Университети Тарих факултети
70220401 Археология мутахасислиги магистранти
Telefon: +998912927703*

Анонтиация: Мақолада бугунги кунда ўрганилиши катта аҳамият касб этиб келаётган Ўзбекистондаги тарихий объектлардан бири, лекин ҳали тадбиқ этиш, амалий ишларни ташкиллаш учун тўлиқ жараёнлар бошланмаган ёдгорлик Тергачи археологик ёдгорлиги ҳақида аҳамиятли археологик экспонатларга, маданий қатламларга эга эканлигини баён этилган.

Калит сўзлар: Ноғоратепа, Тафтуқ ота, Неъматилла Нурмажидов, “Муғтепа”, “Гўрмирон”, “Ноғоратепа”, “Навжартепа”, “Дукортепа”

Косонсой тумани Наманган вилоятининг кўхна археологик маконларга бой масканларидан ҳисобланади. Тумандаги қабристонлар бағрида ҳам қанчадан-қанча тарих сир-синоатлари яширин. Бунга мисол тумандаги Ноғоратепа археологик ёдгорлиги ҳудудидаги қадимий қабристон саналган Тафтуқ ота қабристонидаги янги қабр қазишлар чоғида топилган сопол буюмлардир.

Қабристондан топилаётган сопол буюмлар ҳақидаги хабарни эшитгач, Косонсой тарих музейи илмий ходимлари Тергачи қишлоғидаги Тафтуқ ота қабристонига бориб, ҳолатни суриштиришди. Ҳақиқатан ҳам қабр ковлаш жараёнида қабристон ҳудудининг юқори дўнглик жойидан эски қабрлар ва ичида мархум билан бирга кўмилган сопол буюмлар чиқаётганлиги айтилди. Бу сопол идишларни бу жойга келган одамлар қизиқиб олиб кетаётганлиги боис музей ходимлари томонидан улар Косонсой туман музейига олиб келинди.

Ўрганишлар ва оғиздан-оғизга ўтиб келаётган маълумотлар, бу маконда яшаб келаётган халқлар тарихи шундай далолат берадики, Тергачи қишлоғидаги Тофтуқ ота қабристони қадимий манзилгоҳлардан бири. Бу ердаги қабр атрофи ва ичида топилган археологик ашёлар бунинг яна бир ёрқин исботи бўлди. Ўтган асрнинг охирларида мархум Неъматилла Нурмажидов, кейинги йилларда унинг ўғли Қудратиллалар қабристон учун ажратилган жойнинг энг юқори қисми, тепаликда янги қабр ковлаётган пайтларида эски қабрларга дуч келишганлигини айтишганди.

Шуниси эътиборлики, қайси лаҳадни ковлашмасин, у ердан нафис ишланган кўза ва бошқа сополдан ясалган ашёларга дуч келишади. Бу маскандан

шу кунгача топилган буюмлар сони 50 тадан ошади, улардан 36 донаси яхши ҳолатда бизгача етиб келган.

Ер остидан топилган сопол буюмлар орасида асрлар давомида яхши сақланиб келган қўзаларнинг 3 донасида маҳсус белги қўйилган бўлиб, бир бода кичик япалоқ қўзачада тирноқи чизиқ билан безатилган ва қўза оғзи атрофига доира шаклида гир айланга сурати туширилган.

Топилмалар орасида 3 дона – обдон-сувдан бўлиб 3 таси туюда ва 1 донаси отларда сув ташишга мўлжалланган. Бу обдонларнинг бир томони ясса ишланган бўлиб, уни от билан туюда қулай олиб юришга хизмат қилган. Бу қўзаларнинг бир нечтаси 10-12 литр сув сифадиган бўлиб, оғзи юқорига қаратилган ва оғиз қисмига торайиб борган. Бу эса сувнинг тошиб чиқиб кетишининг олдини олган ва туюни оҳиста юришига мослашган, тую ўркачига боғлаб қўйиш учун дастаси ҳам бўлган. Отда олиб юришга мўлжалланган бир дона обдон қўза, 1.5 литр сув сифимиға эга ва оғзи жуда кичкина бўлиб, зеро от тез ва жадал юрганда ҳам сув отилиб чиқишига имкон бермаган. Бу қадимий маскандан бу каби обдон қўзаларни топилиши бу макондан савдо карвонлари ўтганлигини қўрсатади.

Топилмалар ичидаги кичик қўза ичида яна бир дона ўта кичик пардоз қўзача ҳам мавжуд бўлиб, у аёллар пардозида гулоб тайёрлашда фойдаланилган.

Янги қабр учун жой, яъни қабр ўрни ковланаётганда бир дона тўқимачиликда фойдаланадиган асбоб ҳам чиқсан. Демакки, ўша даврда ҳам аёллар дидли ва зеҳнли бўлишганлигини, тўқимачилик асбобини топилиши эса ўша пайтда тўқимачилик хунари ҳам ривож топганлигини қўрсатади.

Музейга келтирилган 40га яқин сополдан ясалган турли ҳажмдаги қўза, хум, коса кабилар бўлиб, қўзаларнинг баъзилари сарғиш ва баъзилари қизғиши тусдадир. Бу эса кулоллар томонидан ясалган буюмлар хумдонда пиширилгани ва баъзиларига эса ангоб бўёғида пардоз берилганлигини қўриш мумкин.

Бу барча сопол буюмлар турли ҳажмларда бўлиб, тайёрлаш усули ва ясалишига кўра, ўз даврининг хунари ривожланган, аҳоли томонидан улардан фойдаланиш эҳтиёjlари, кўпроқ уй-рўзгорда фойдаланишга мўлжалланганлигини, шу билан бирга уларнинг маҳоратини ўзида намоён этади. Буюмлар бежирим гўзал ишланган, шакли ҳам мукаммал, сопол буюмлар ўша даврда кулолчилик санъат даражасига қўтарилиганлигини қўрсатади.

Бир неча кичик қўзалар нағислиги билан ҳам киши диққатини ўзига жалб этади. Уларни ён деворлари жуда юпқа бўлиб, 3-4 мм ташкил этади. Кўзалар енгиллиги ва пишиқлиги билан алоҳида ажralиб турди. Бу буюмлар усталарнинг катта маҳорат эгаси эканлигидан далолат беради.

Сопол идишлар қадимги маданиятимиз тарихини ўрганишда энг асосий манба бўлиб хизмат қилади, шунингдек, предмет ва ҳодисаларнинг вақти, ўрнини, келиб чиқишини ўрганишда танга, чақа пулдан кейин 2-ўринда турди.

Косонсой туманидаги қадимий маконлар “Мұғтепа”, “Гүрмірон”, “Ногоратепа”, “Навжартепа”, “Дүкортепа” каби күхна археологик ёдгорлик ва қабристонлар археологик тадқиқотлар үтказилиши ва илмий үрганилишини күтмоқда.

Фойдаланылған адабиётлар рўйхати:

- 1.Ҳамиджон Ҳомидий, Адҳамжон Аширов, Мамажон Умаралиев, Косонсой тарихи:, 2010.
2. Салимжон Жўрабоев, Косонсой тарихи ва географияси, 2018
3. Акрамов М.А. Косонсойнинг табаррук зиёратгоҳлари, 2020

HADISLARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILAR MA'NAVIY BILIMLARINI BOYITISH

To'ychiyeva Manzura Abdurahimovna

Sirdaryo viloyati pedagogika instituti fanlar fakulteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti “O'zbek tili va tillarni o'qitish” kafedrasи o'zbek tili fani o'qituvchisi

Hadis (arabcha “rivoyat”, “naql”, “axborot yetkazish” ma’nolarini bildiradi.) islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba bo’lib, Muhammad payg’ambar biror gapni aytgan yoki biror ishni qilib ko’rsatgan bo’lsa, yoxud boshqalarning o’zlariga qilayotgan biror ishni qilib ko’rib uni man’ etmagan bo’lsa, shu uch xolatning har biri sunnat hisoblanadi. SHular haqida rivoyatlar hadis deb ataladi.

Hadis ilmi bilan shug’ullanish asosan 8 asrning 2 yarmidan boshlangan. Dastlab hadislar yozilmay yod olingan. Lekin ularni yod bilganlar kamayib borgach, ularni yozishga zarurat tug’ulgan. Bu ishlarni boshida xazrati Umar turgan

Quroni Karimda barcha huquqiy va ahloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlab uqdirish uchun Muhammad (sav)o’z hadislarini aytar edi. Bu hadislarni payg’ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilar edi.

Rasululloh (sav) hayotlik chog’larida sahabalarning Qur’oni Karimga aralashtirib yuborishlaridan qo’rqib hadislarni naql qilish odat tusiga kirdi. SHu munosabat bilan bir guruh musulmonlar payg’ambarimiz (sav) hadislariga begona so’z aralashib qolishidan va hadislarni naql qiluvchi sahabalarini vafot etishlari bilan hadis zoye bo’lishidan qo’rqib, uni yozma shaklda to’play boshladilar. Bu odamlar turli yurtlarga tarqalib ketganlar. 7 asr o’rtalaridan boshlab ularni topib hadislarni og’izlaridan yozib olishga harakat qilingan. Bularda Turkistonlik muhaddis olimlar katta xizmat qilganlar.

Sohta hadislar sonini ilk islom davridayoq oshib ketgani musulmon ulamolari orasida ularga nisbatan tanqidiy yondashish lozim ekanligini ko’rsatdi. Muhaddislar muomaladagi soxta hadislarni asldan ajratish uchun ularni sinchiklab o’rganish zaruriyatini anglab yetganlar. Musulmon tanqidchiligining asosiy e’tibori hadisni asldan ajratish uchun ularni sinchiklab o’rganish zaruriyatini anglab yetganlar.

Imom al Buxoriy (asl ismi Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy) islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultonи deb ham yuritiladi. U 5 6 yoshidan islomiy ilmlarnin, Muhammad (sav)ning hadislarni o’rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislardan ilm oladi. U butun faoliyati davomida ila kishilarini ma’naviy va moddiy jihatdan qo’llab quvatlagan. Tijorat qilganda topgan oylik daromadidan faqiru miskin va talabalarga sarflagan. SHaxsiy hayotidaortiqcha dabdaba va sarrf xarajatlarga yo’l qo’ymagan.

Buxoriy umr bo'yи hadislarni toplash va tizimga solish bilan shug'ullungan., Ularni sahihga ajratgan. Alloh taolo marhamat qiladikim "Sizga Rasul nimani bersa oling va sizni U zot nimadan qaytarsa, qayting"(Ulug' Alloh rost so'ylaydi.)

Payg'ambarimiz nihoyatda qisqa iboralar bilan bir olam ma'noni bayon etadilar. SHuning uchun ham ulomolarimizhadisi sharifni alohida e'tibor bilan o'r ganib chiqadilar. Imom SHo'feiy rahmatullohu alayhi esa :"Ilmning yarmi shu hadisdadir"degan ekanlar

Sevikli payg'ambarimiz "Ilm talab qilish har bir muslim uchun farzdir"deganlar.Nima uchun? CHunki iymon keltirish uchun ham ilm kerak.Musulmon bo'lish uchun ham ilm kerak. Niyat qilish uchun ham ilm kerak.Ixlos qilish uchun ham ilm kerak. Ibodat qilish uchun ham ilm kerak. Allohnning roziliginini topish uchun ham albatta ilm kerak. Xuddi oila qurish uchun ham ilm kerak, oxirat saodatini topish uchun ham ilm kerak. SHunday ekan ilm nima o'zi? Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qiladilarki Payg'ambarimiz"Kimki bir ilmdan so'ralsayu bas u o'shani yashirsa, qiyomat kuni Alloh uni olovdan bo'lган yugan bilan yuganlaydi"dedilar. Boshqa tuzumlarda ilm o'z egasining mulki hisblanadi. Olim odam nimani hoxlasa, shuni qiladi. Hoxlasa birovga o'rgatadi hoxlamasa o'rgatmaydi.Islomda esa ilm olimning emas,balki o'sha olim yashayotgan jamiyatning mulki hisoblanadi. Olim esa uni o'zida omonat saqlab turgan odam. Jamiyat qachon muhtoj bo'lib qolsa ,olim o'sha omonatdagil ilmdan berishi lozim. Bermasa hiyonat qilgan bo'ladi. Bu dunyoda qutulib ketgan bo'lsa ham ohiratda albatta ,jazosini oladi. Bu hadisdan oladigan foydamiz ravshan ilmi bor kishilar o'zlaridagi ilmni berkitmasdan, so'rab kelgan,o'rganmoqchi bo'lган kishilarga o'rgatishlari kerak. Agar birov bu yo'lda to'siq bo'lsa, barcha gunoh o'sha to'g'anoqlik qilgan tomonga tushadi. Hadisdan juda keng ma'nolar, ba'zi bir hollarda esa keyinchalik to'la kashf etiladigandek rivoyat qilinmasa, eshituvchi shaxs o'zi tushungan ma'noni rivoyat qilsa unda ham putur yetadi. Payg'ambarimiz "Ba'zi yetkaziladigan odam eshituvchidan ko'ra anglovchidir. " Bu hadisdan ma'no 1.O'zi bilgan ilmni o'zgalarga yetkazish zarurligi.

2.Birovdan eshitgan narsani eshitganidek qilib yetkazish.

Ilm talab qilgan kishi uni

1 Ulamolar bilan mojaro qilish uchun o'rganmaslik kerak.Agar ilmni yaxshilab o'rganish ulamolar bilan talashib tortishib mojaro qilib hammasini yengib jim qilib qo'yay degan niyat bo'lmasligi kerak.

2.Esipastlarga g'olib kelib,o'zini ko'rsatish uchun

3 YOki u bilan odamlarni o'ziga qaratish uchun ilm talab qilmasligi kerak.

Anas roziyallohu .ang'udan rivoyat qilinadi "Payg'ambarimiz sollollohu alayhi vasallam biror kalima aytadigan bo'lsalar, tushunarli bo'lishi uchun, uni uch marta qaytarar edilar. Agar biror qavmning oldiga kelib salom bersalar uch marta salom berar

edilar” Bunda maqsad, olim odamning dars berayotganida yohud biror ma'lumotni yetkazayotganida eshituvchiga tushunarli qilib gapisirishi lozimligi anglatishdir. SHuning uchun dars berayotganda yoki biror ma'lumotni yetkazayotganda o'sha narsa eshituvchiga tushunarli bo'lishi uchun harakat qilish lozim. Salom berayotganda ham birinchi marta eshitmay qolsa ikkinchi, uchunchi marta takror salom berish lozim.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	DASTURLASHDA SANA VA VAQTLAR BILAN ISHLASH	3
2	FLIPPED CLASSROOM TEXNOLOGIYASIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASI	7
3	KOMPYUTER DASTURIY TA'MINOTI	12
4	A SYSTEMATIC APPROACH TO SOLVING COMPLEX PROBLEMS IN THE CONTEXT OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES AND DIGITALIZATION IN UZBEKISTAN	19
5	O'ZBEKİSTONDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING BUGUNGI BOSQICH XUSUSIYATLARI VA CHET DAVLATLAR USLUBIDAN FOYDALANISH	24
6	TEZ TIBBIY YORDAM XIZMAT OLIB BORISH TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIK OSHIRISH ISLOHATLAR	29
7	TOLA AJRATISH TEXNOLOGIK QURILMASIDA REAKTIV QUVVATNI KOMPENSATSIYALASH ORQALI ENERGIYA SAMARADORLIKKA ERISHISH	32
8	UCH O'LCHOVLI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH USULLARI ASOSIDA MUZEY EKSPONATLARINI VIRTUAL TAQDIM ETISH	40
9	TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY TA'LIMNING IMKONIYATLARI	49
10	ОВЛАДЕНИЕ КУЛЬТУРОЙ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА В СОВМЕСТНОЙ РАБОТЕ ПИАНИСТА С УЗБЕКСКИМ НАРОДНЫМ ИНСТРУМЕНТОМ ГИДЖАК	52
11	METHOD OF INCREASING VOCABULARY OF STUDENT'S TO SELF DEVELOPMENT DIRECTED IN PEDAGOGICAL PROCESS	57
12	BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	59
13	UMARALI NORMATOV IJODIY FAOLIYATI, MUNAQQIDLIKKA KIRIB KELISHI VA MAQOLALARIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR TAHLILI	62
14	NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING TA'LIM OLİSHGA BO'LGAN HUQUQINING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI	67
15	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN O'YINLAR	74
16	AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA DARS MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH METODLARI	78
17	ФАРГОНА ВИЛОЯТИ МУЗЕЙЛАРИ ТАРИХИ ВА АРХЕОЛОГИК ЭКСПОНАТЛАРИ ҲАҚИДА	81
18	ТЕРГАЧИ АРХЕОЛОГИК ЁДГОРЛИГИ-ИЛМИЙ ЎРГАНИШЛАРНИ КУТМОҚДА	86

Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi

Eslatma!— Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnalı ma’naviy – ma’rifiy ilmiy ommabop jurnal, o’zbek, rus va ingliz tillarida bir oyda bir marotaba elektron tarzda internet tarmog‘ida tarqatiladi va nufuzli xalqaro bazalarda indekslanadi.

Bosh muharrir:
Saidova Mohinur Jonpo’latovna

Mas’ul kotib:
Vahobov Adxamjon Bahodirovich

Dizayn muharriri:
Xoliqov Tohirjon Shavkatjon o’g’li

— Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnalı - ma’naviy – ma’rifiy ilmiy ommabop jurnal / 2023 yil